



BADIY ASAR O'QITISHDA QAHRAMONLAR XARAKTERINI O'RGANISH TIZIMI VA METODIKASI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Matkarimova Sayyora Shavkatbek qizi

Annotatsiya. Mazkur maqolada adabiyot darslaridagi badiiy asar qahramonlarining xarakter-xususiyatlarini o'r ganish jarayonida olib boriladigan ilmiy-metodik yondashuvlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Adabiyot, maktab, badiiy asar, metod, darsliklar.

Ma'lumki, kishilarning jamiyatdagi tutgan o'rnini, o'zaro munosabat va aloqalarini tasvirlab ko'rsatish badiiy adabiyotning asosiy mazmunini tashkil qiladi. Obraz – kishi hayotining tasviridir. Asarda tasvirlanadigan kishilar obrazi – asarning asosiy komponentidir. Bu komponent – kishilar o'zining badiiy ifodalanishi, bo'yoq dor va jonli tasvirlanishi jihatidan obraz darajasiga ko'tariladi. Obraz darajasiga ko'tarilish uchun tasvirning bo'yoq dorligi va jonliligi kifoya qilmaydi.

Tasvirlanayotgan kishi qaysi ijtimoiy tabaqa yoki guruhda, qaysi kasb va hunarga mansub bo'lsa, uning obrazida shu kishilar uchun umumiy bo'lgan asosiy belgi-xususiyatlarni mufassal aks ettirish lozim. Shundagina u tip darajasiga, ma'lum guruh yoki kasb-hunar egalarining yorqin namoyondasi darajasiga ko'tariladi.

Asar qahramonlari turlicha tasvirlanishi mumkin. Masalan, Abdulhamid Cho'lp on o'z asarlaridagi qahramonlarning obrazlarini va ularning qiliq va odatlarini, kishilar bilan muomalalarini tasvirlash orqali takomillashtirib, ochib beradi. O'tkir Hoshimov esa obraz yaratishda asosiy e'tiborni asar qahramonlarining ichki kechinmalarini, ruhiy holatlarini tasvirlashga qaratadi. Bu har ikkala buyuk so'z san'atkorining obraz yaratishdagi tanlagan yo'li, ijodiy uslubi turlichadir.

Yozuvchi qahramonning obrazini yaratishda tanlagan mavzusiga aloqador ma'lumotlarni, tajribalar va ayniqsa o'zining shu tema ustidagi shaxsiy fikrlarini obrazning harakat va xususiyatlari, dunyoqarashi orqali tasvirlaydi. Yozuvchi hayotni



qanday tushunsa, uni qanday ko‘rishni istasa, ana shu istaklarini obrazda mujassamlantiradi.

Misol uchun Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonini olib ko‘raylik. Bu dostonni tahlil qilish Farhod, Shirin, Mehinbonu, Shopur, Xisrav kabilarning obrazini o‘rganish demakdir. Asar yaratilgan davrni ko‘rib chiqaylik: toj-taxt talashlari avj olgan bir sharoitda adolatning g‘alaba qozonishi mumkin emas edi. Lekin, shunga qaramay, adolatni himoya qiluvchi, jabr-zulmga nafrat ko‘zi bilan qarovchi xalq farzandlari ham mavjud edi.

Shoirning talqinidagi Farhod, Mehinbonu, Shirin va Shopurlar chin insoniy fazilatlarga ega bo‘lgan kishilardir. Farhod - olim, san’atkor, mehnatsevar, mard, botir, adolatli, sadoqatli, vafodor, mehribon, qisqasi, har tomonlama kamol topgan olijanob obraz sifatida gavdalanadi. Nima uchun shunday? Dastavval buning sababi shundaki, buyuk shoir va mutafakkir Navoiy umuman kishilarda shu fazilatlar bo‘lishini orzu qilar edi. Bu orzularning zamini, kurtaklari, garchi to‘la bo‘lmasa ham, shu xislatlarga ega bo‘lgan xalq farzandlari bor edi, albatta. Shu tufayli olamda bo‘lgan barcha yaxshi xususiyatlar to‘planib Farhod obrazida gavdalantirildi. Farhodning barcha xislatlari, harakat va intilishlari, kishilarga munosabati va mehribonligi, sevgilisiga sodiq va sabotli kishi ekanligi shoirning orzu umid va istaklaridir. Shuning uchun ham shoirning niyatlariga moslangan bu personaj adolatparvar va erksevar kishilarga yoqadi. Navoiy Farhodning dunyoqarashi orqali o‘z maqsadlarini anglatadi. Asar qahramonlarini o‘rganishda nimalarga e’tibor berish kerak?

Asarni o‘rganishdan asosiy maqsad asardagi vatanparvarlik g‘oyalarini yoshlarga singdirish, ularda turli insoniy fazilatlarni tarkib toptirish, ijobjiy qahramonlar misolida zamonamiz talabiga munosib tarbiyalashdan iborat.

Badiiy asarlarda, ayniqla o‘zbek adabiyoti namunalarida shunday qahramonlar borki, ularning ma’naviy qiyofasi qarashlari va ijtimoiy faoliyati tarbiya prinsiplariga juda mos keladi, bolalarni shu ruhda tarbiyalashga yordam beradi.

Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasidagi Qori Ishkamba, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi Razzoq so‘fi, Akbarali mingboshi adolatsizlik hukm



surgan zamonning ho‘jayinlari bo‘lgan. Ulardagi xudbinlik va shaxsiyatparastlik, o‘z manfaati uchun boshqalar boshiga bexad kulfatlar solish kabi razilliklar shu obrazlarga xos xususiyatlardir.

Bunday qahramonlarni o‘rganishda ijobiq qahramonlarga taqqoslab ko‘rish, ularning qarama-qarshi xislatlarini aniqlash, shu yo‘l bilan biriga muhabbat, ikkinchisiga nafrat, undan jirkanish ruhini o‘stirib borish - ana shu obrazlarga bag‘ishlangan dars mashg‘ulotining mazmunini tashkil etishi lozim.

O‘quvchilar salbiy qahramonning xususiyatini o‘rganish orqali o‘sha davr hayotining manzarasi bilan tanishadilar. O‘tmishdagi kishilar hayotining mashaqqatlarini ko‘z oldiga keltiradilar. Bu o‘quvchi-kitobxonni hayot ziddiyatlari bilan tanishtiradi.

Mumtoz adabiyot vakillari Rabg‘uziy, Navoiy, Bobur, Nodir, Uvaysiy, Muqimiylar va Furqatlarning asarlarida o‘tmish davrlardagi hayot manzaralari yaqqol gavdalantirib berilgani tufayli bu asarlar ahamiyatli va qimmatlidir. O‘tmishdagi buyuk san’atkorlarning asarlari zamondoshlarimiz uchun katta madaniy xazinadir. Ularning madaniy merosi muhim ta’lim-tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Alisher Navoiyning:

Muruvvat barcha bermak, emak yo‘q,

Futuvvat barcha qilmak, demak yo‘q.

Yoki:

Kishi ta’limdin topsa malolat,

Topar ilm ahli oldida xijolat...

Quyoshlik istasang kasbi kamol et

Kamolat kasb etarsan bemalol et-

degan satrlarini olib ko‘raylik.

Bu – oldingi davrida aytilgan fikrlar bo‘lsa ham hozirgacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, balki asrlar osha bizga yetib kelgan foydali nasihatlardir.

8-9-sinflarda asarlarni tahlil qilishda asosiy masala – obrazlarni o‘rganish, ularga xos xususiyatlarni aniqlash, qahramonlarning o‘xshash yoki farq qiluvchi tomonlarini aniqlashdan iborat.



Asarni o‘rganishda, obrazlarni analiz qilishda dastavval o‘quvchilarning e’tibori shu ishning ta’lim-tarbiyaviy tomoniga jalb etiladi. Chunki asar qahramonlarini o‘rganishdan maqsad ularning fazilatlari misolida o‘quvchilarni tarbiyalab borishdir.

Badiiy asar qahramonlarida, yuqorida eslatib o‘tilganidek, shu obrazga maslakdosh kishilarning xususiyatlari umumlashgan bo‘ladi. Yozuvchi tip yaratish maqsadida shu qahramonga o‘xshagan ko‘pgina kishilarning odati, fikr-hayoli, yurish-turishi, kasb-hunari, tashqi qiyofasi va shu kabilarni birlashtirib, o‘z qahramonida mujassamlantiradi. Chunki «Muayyan bir tip yaratish uchun bir toifadagi juda ko‘p kishilarni kuzatish kerak» (L. Tolstoy).

Agar qahramonda o‘zidek kishilarning asosiy xususiyatlari o‘z ifodasini topmas ekan, bu obraz tip darajasiga ko‘tarila olmaydi.

Asar obrazlarini o‘rganishda adabiyot dasturi doirasida sinfning saviyasiga moslab nazariy ma’lumot berib boriladi. Asar qahramonlarini o‘rganish mashg‘ulotlarida personajga xos xususiyatlarni aniqlay borib, keyinchalik, ayniqsa 8-sinfda o‘quvchilar asarni tahlil qilishda quyidagi masalalarni oydinlashtirish malakasini hosil qiladilar.

Asar qahramonlarini o‘rganishda dastlab ularga xos xususiyatlar aniqlanadi. Shu qahramonga xos muhim xususiyatlarning yig‘indisi uning tavsifnomasini tashkil kiladi. Xarakteristika - qahramon obrazining barcha xususiyatlari bilan gavdalishidir. Badiiy asarlarni tahlil qilish natijasida o‘quvchilar quyidagilarni bilib olishlari kerak.

1. O‘rganiyatgan obrazning xarakterini turmush sharoiti, muhiti va uni qurshagan odamlarning xarakteri va munosabatiga bog‘lab o‘rganish zarur.

Har bir o‘quvchi shu obraz harakat qilayotgan jamiyat, davr, sharoit, u bilan munosabatda bo‘lgan kishilar haqida tasavvurga ega bo‘lganidagina, shu obrazning konkret sharoitda qanday o‘rin tutganini va mavqeini aniqlaganidagina uning haqqoniyligi va tipikligini anglab etadi.

2. Qahramonning xarakterini ochadigan belgilarning biri – uning kishilar orasida va oiladagi yashash sharoitidir. Uning xususiyat va qiliqlari, odat va



harakatlari, asarda ishtirok etuvchi boshka personajlar bilan munosabati kabi muhim tomonlar ham e'tiborga olinadi. Qahramonning xarakterini ochish uchun asar voqeasi davomida uning boshqa personajlar bilan qaysi davrda, qanday vaziyatda va munosabatda bo'lganligini, bu munosabatning nimadan iborat ekanligini ham aniqlab borish zarur.

3. Shu obrazning xarakterini ochishda xizmat qiladigan vositalardan yana biri – uning portreti, til xususiyatlari va uning tasviri bilan bog'liq bo'lgan manzara tasviri va yashash sharoitidir.

Qahramonning portreti (uning tashqi qiyofasi)ga turli Yozuvchilar har xil o'rin berishadi. Ular tanlagan uslublarida ham, qahramonning portretini yaratishda ham bir-birlaridan farq qilishadi. Masalan, Asqad Muxtor obrazning portretini yaratishda uning psixologik tomonlariga ko'proq ahamiyat beradi, psixologik xususiyatlar fonida qahramonlarning portretlarini chizadi. Oybek esa ko'pincha qahramonning tashqi qiyofasi, kiyimi, vajohatini ko'rsatadi. Misol uchun Komilaning portretini olib ko'raylik: "...qayerdandir ot o'ynatib qiz kelib qoldi: uning yuzi qoramtir, to'lagina; kulimsiragan lablari ingichka; iyagining ichida kichkina chiroyli chuqurchasi bor; qop-qora ko'zлari juda jonli, o'ynoq; qoshlari ingichka, sal chimirilgan; sochlari yangi do'ppi ustida chambar; ustiga eskiroq atlas kiygan. Qiz so'liq chaynab boshini tinmay silkigan, ko'zлari hurkak, baland bo'z otdan tushmasdan, o'tkir jarang tovush bilan gapira boshladi-yu, birdan O'ktamga ko'zi tushib, kim ekan, deganday bir zum tikildi-yu, otdan chaqqon tushdi, jilovini bilakka solib, O'ktamga qo'l uzatdi...." ("Oltin vodiydan shabadalar") shu portret bilan tanishgan kishi ko'zi o'ngida Komila gavdalanadi. Shu portretning o'ziyoq qahramon obrazi haqida tasavvur hosil qiladi. Shu portret tasviri qahramonning o'ziga xos xususiyatlarini ochishga yordam beradi. Tog'ay Murod har ikkala xususiyatlarni: psixologik fondagi hamda tashqi qiyofani tashqi ko'rinish bilan uyg'unlikda tasvirlaydi.

Qahramon xarakterini ochishga xizmat qiladigan muhim vositalardan yana biri – uning til xususiyatidir. Kishilarning nutq alomatlari orqali ham ularning qaysi tabaqa, guruh va kasbga mansubliklarini belgilash mumkin. Qori Ishkamba



(“Sudxo‘rning o‘limi”) va Akbarali mingboshilarning (“Kecha va kunduz”) dag‘al muomalalari, Orif bobo (“Chinor”) va Dehqonqullar (“Otamdan qolgan dalalar”) ishlataladigan iboralar ular haqida tasavvur hosil qilganidek, Qobil bobo, Komila, O‘ktam (“Oltin vodiydan shabadalar”) kabilarning nutqi ham ularning xususiyatlarini anglata oladi.

Tabiat manzaralari tasviri ham asar qahramonlarining xarakterini ochishda xizmat qiladi. Ba’zan manzara tasviri asar mazmunini anglatishga yordam bersa, ba’zan qahramonning ruhiy holatini, yozuvchining voqeа-hodisalarga munosabatini bildiradi. Bu masalaga keyinroq alohida to‘xtalib o‘tiladi.

4. Qahramonning xususiyatlarini aniqlash bilan birga, xarakteristika tuzishda yozuvchining dunyoqarashini, shu qahramonga munosabatini, real hayotni qanchalik aks ettira olganligini, unga qanday baho bergenligini ham aniqlash talab etiladi.

Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasidagi Amin obraziga yozuvchi qanday munosabatda bo‘lganligi Aminning Qobil boboden istehzoli kulishi, masxara qilishi fonida bayon qilinadi. Yozuvchi, «berganga bitta ham ko‘p, olganga o‘nta ham oz» deyish bilan yaratgan qahramonlariga shaxsiy munosabatini ham bildiradi. Ayniy Qori Ishkambanining portretini ham, xulq-atvorini ham, ochko‘zligini ham ulardan hazar qilish ruhida tasvirlaydi.

Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanida yozuvchi Razzoq so‘fining shafqatsizligi, ochko‘zligi va zolimligini tasvirlash orqali bu obrazga nafratini bildiradi.

Chingiz Aytmatov esa «Alvido Gulsari» qissasida, «Unga qarash yoqimli va zavqli edi», deyish orqali Gulsariga mehr-muhabbatini izhor qiladi.

5. Nihoyat, asar qahramonlarining asosiy xususiyatlarini o‘rganishda yuqorida ko‘rsatilgan ayrim xususiyatlar bilangina chegaralanmay, balki shu xususiyatlarning barchasini bir butun holda hisobga olib, qahramon haqida to‘la va mukammal tasavvur hosil qilish zarur.

Asar qahramonlarining avval alohida xususiyatlari o‘rganilib, keyin hamma xususiyatlar birlashtirilib, yakunlovchi xulosaga kelinadi. Bu sintez ancha murakkab



ish bo‘lsa ham, o‘quvchilarda asar qahramonlarini shu yo‘l bilan o‘rganish malakasini hosil qilish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Shermatova U.S. Badiiy asar qahramonlarining xarakter xususiyatlarini o‘rganish asar tahlilining uzviy elementi sifatida // МУФАЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ // (№ 4 2024)
2. Safo Matjon. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. (O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma)-T: “O‘qituvchi”, 1996
3. Matkarimova, S. S. (2023). BADIY ASARLAR: ERTAK, HIKOYA MAZMUNINI O ‘ZLASHTIRISH METODIKASI (2-SINF O ‘QISH VA ONA TILI SAVODXONLIGI DARSLIGI MISOLIDA). O’ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(19), 151-155.
4. Karimova G., Xudayqulova F. NAVIGATING THE REALM OF SCHOOLS OF INTERNATIONAL EDUCATION: A COMPREHENSIVE EXAMINATION //PEDAGOG. – 2024. – Т. 7. – №. 4. – С. 565-569.
5. Madraximova Inobat Bahodirovna OGАHIY IJODINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O‘RNI / Madraximova Inobat Bahodirovna [Текст] // Muhammad Rizo Ogahiy ijodining bugungi avlod ta’lim va tarbiyasidagi beqiyos o‘rni RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI. — 2024, 7-dekabr:Urganch, 2024. — С. 311-313.
6. Matkarimova , S. (2023). FORMING CREATIVE THINKING THROUGH CREATIVE TASKS. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 4(5), 144–153. <https://doi.org/10.37547/mesmj-V4-I6-22>
7. Matkarimova , S. (2023). TECHNOLOGIES FOR STUDYING PEOPLE’S ORAL CREATION SAMPLES IN DIFFERENTIAL LITERARY EDUCATION (FOR THE EXAMPLE OF FOLK EPISTLES). Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal